

**JINOYIY JAZONI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TUSHUNISHGA
URINISH YOKI ASRLARNI QIYNAGAN MUAMMO***Inazarov Shuxrat Najmetdinovich**Termiz davlat universiteti Yuridik fakultet o'qituvchisi*

Annotatsiya: Insoniyat tsivilizatsiyasida o'zining aniq va mufassal javobini kutayotgan muammolar talaygina. Shulardan biri, asrlar davomida fuqarolar, olimlar, siyosatchilar, sotsiologlar, falsafashunoslar, davlat va din arboblari, umuman jamiyat va davlat oldida turgan eng serqirra va murakkab muammolardan biri bu jinoyiy jazodir. Bir qarashda ushbu muammo siqasi chiqqan, go'yo allaqachon hammaga ma'lum, hamda yechimi oson yakun topgandek bo'lib ko'rinadi. Aslida esa? Yo'q, bunday emas. Hatto hozirda ushbu muammolarni tadqiq etishga ixtisoslashgan penologiya faniga qiziqish ham kun sayin ortib bormoqda. Bu o'rinda gap jinoyiy jazoning maqsadi (davlat uchun uning aslida qanday vosita ekanligi) hamda u qanday bo'lishi (og'ir yoki engil) va qo'llanilishi (tayinlanishi va ijro etilishi) haqida bormoqda. Ushbu uchta komponentlar jamuljam holda o'zida jazoning asl va tub mohiyatini aks ettiradi. O'z navbatida, jinoyiy jazoning mohiyati chuqur falsafiy mazmun kasb etadi. Shu sababli, u haqida tayan tasavvur hosil qilish uchun falsafiy yondashish talab etiladi.

Kalit so'zlar: Jazo .Jazoning o'g'ir va yengilligi.Jazoni ijro etish.

Muammo nimada?! Demak, birinchi masala – bu jazoning maqsadi. Turli davlatlar qonunchiligida jazoning maqsadi bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, uning ayrim jihatlari o'zaro farqlanadi. Lekin ko'plab davlatlarda va umuman hozirgi zamon jinoyat huquqi doktrinasi da jazoni mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoyiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish, ijtimoiy adolatni tiklash hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi, deb belgilangan. Afsuski, aynan ushbu maqsadlar barcha asosli shubha uyg'otadi. Oddiy fuqarolar va bir guruh mutaxassislar ushbu maqsadlar shunchaki ko'zbo'yamachilik, chunki aslida jazo jamiyat va davlatning jinoyatchidan qasos olishidir, deb tushunishadi. Boshqalar esa, bunday qarashni savodsizlik va kaltafahmlikdan boshqa narsa emas, deyishadi. Ularning fikricha jazoning maqsadi jinoyat sodir etgan shaxsni tarbiyalash va jamiyatga qaytarishdir. Yana boshqa nuqtai nazarga ko'ra, jinoyiy jazo har qanday davlatda jamiyatni jinoyat tajovuzlaridan qo'riqlash vositasidan o'zga narsa emas. Xo'sh, qaysi fikr to'g'ri? Yoki har biri o'z holicha qisman o'rinlidir? Balki barcha fikrlar noto'g'ridir. Savollar, savollar... Javob yo'qdek go'yo!

Keyingi masala – bu jazoning og'ir yoki engil bo'lishi ustidagi bahs-munozaralar. So'nggi yillarda demokratiyaning eng asosiy talablaridan biri sifatida jinoyiy jazoning liberalashuvi tarafdorlari ko'paymoqda. Dunyoning aksariyat davlatlari o'z jinoyat qonunlarida jinoyiy jazo tizimini liberalashtirib bormoqdalar. Bu o'rinda asosiy e'tibor jazoning tarbiyaviy funksiyasi samaradorligini oshirishga qaratilmoqda. Yana boshqa mutaxassislar esa, jazoning engilashishi davlatning

jinoyatchilikka qarshi kurashish qobiliyatiga jiddiy zarar yetkazish xavfi haqida fikr bildirishmoqda. Bundan tashqari, jinoyiy jazoning engilashishi jinoyat sodir etishga moyil shaxslarda mas'uliyatsizlik, jinoyatdan jabrlangan jamiyat a'zolarida esa nafrat, va davlat apparatiga nisbatan norozilik hissini uyg'otishi muqarrarligi bayon etiladi. Bu holat yuzasidan dunyo dinlari arboblari ham Muqaddas kitoblardagi “qonga qon, jonga jon”, “al-qasos ul minal haq” kabi prinsiplariga zid ekanligini da'vo qilishadi. Darhaqiqat, qaysi fikr ko'proq tosh bosadi? Bir tomondan og'ir va hatto o'hta og'ir jazolar jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarasiz ekanligi son-sanoqsiz misollar bilan isbotlangan bo'lsa-da, aynan liberal jazolar jazoning maqsadlariga erishishga xizmat qilishi uchun ko'plab asoslar mavjud bo'lsa-da, so'nggi yillarda jazo so'zning o'z ma'nosida jazo bo'lishi kerakligi, u og'ir bo'lmasa o'z mohiyatini yo'qotishi haqida gapirilmoqda.

Yana bir muhim masala – bu jinoyiy jazoning qanday qo'llanilishi, ya'ni tayinlanishi va ijro etilishidir. Chunki jazoning asl mohiyatini aks ettirish va undan ko'zlangan maqsadga erishishda, uni to'g'ri tayinlash, tayinlangan jazoni esa oqilona ijro etilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, hozirda dunyo bo'ylab ko'plab mutaxassislarni davlatning jinoyat-huquqiy siyosati samaradorligi sabablarini jazo siyosatidan emas, balki aynan penitensiar siyosatdan izlashga urinishlari ham bejizga emas. Jinoyiy jazo tizimi turlicha bo'lishi mumkin, og'ir, engil, liberal yoki repressiv va hokazo. Ammo u adolatli va to'g'ri tayinlanmasa, bu masala umuman ahamiyat kasb etmaydi. Xuddi shunday, tayinlangan jazo, u qanday jazo turi bo'lishidan qat'i nazar, oqilona ijro etilmasa (har ikkala holatda ham jazoning maqsadlariga tamomila erishish nazarda tutilmoqda), har qanday mantiq chippakka chiqishi muqarrar.

Yuqorida ko'tarilgan asosiy uch guruh muammoga oydinlik kiritishda falsafaning “Hayotda mutlaq ob'ektivizm mavjud emas, faqat nisbiy ob'ektivizm bor” degan “oltin qoida”sidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu bilan aytmoqchimizki yuqorida zikr etilgan fikrlar qisman va har biri o'z o'rnida to'g'ri bo'lishi mumkin.

Demak, jazoning maqsadi haqida fikr yuritar ekanmiz, ushbu fikrimiz aniq va real bo'lishi uchun barcha umumqabul qilingan nazariya va qarashlardan bir oz chekinib, va baland parvoz “rasmiiy” qarashlardan voz kechib gapirishga to'g'ri keladi. Jazoning maqsadi bu eng avvalo jinoyat sodir etgan shaxsni sodir etgan jinoyati uchun jazolashdan iborat. Qolgan barcha maqsadlar ushbu asosiy maqsad negizida yashirinaadi. Albatta zamonaviy hayot sharoitida jazolash oqilona bo'lishi uchun qo'shimcha tarzda axloqan tuzatish, tarbiyalash, jinoyatlarni oldini olish, boshqa shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan yondoshiladi. Bu bizningcha to'g'ri. Lekin ayni holatda jazoning maqsadlari ichida “jazolash” maqsadi borligini inkor etolmaymiz.

Jazoning og'ir yoki engil bo'lishi haqida o'ta munozarali masalaga keladigan bo'lsak, bu haqida cheksiz gapirish mumkin. Jazo tizimida og'ir va engil jazo turlari mavjud bo'lishi kerak. Chunki ular har biri o'z o'rnida davlat uchun jamiyat manfaatlari yo'lida zarur bo'lishi mumkin. Yana bir muhim masala jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, odamlarning ongidagi mafkuraviy o'zgarishlardan kelib chiqib, jazo tizimi ham muntazam tarzda islohot qilib borilishi lozim. Chunki hayot bir joyda turmaydi, u tinimsiz davom etadi. Bugun to'g'ri va foydali bo'lgan narsa, ertaga noto'g'ri va butunlay foydasiz, bo'lsa ustiga zararli bo'lishi ham mumkin.

Eng muhim holat! Nihoyat so'nggi masala – bu jazoni tayinlash va ijro etish. Yana “nisbiylik” nazariyasiga qaytamiz. Jazo tizimi qanchalik mukammal bo'lmasin, agar u to'g'ri tayinlanmasa va oqilona ijro etilmasa, samarasiz bo'lib qolaveradi. Jazoni tayinlashda eng asosiy prinsip differentsiatsiya bo'lishi lozim. Bu o'rinda gap bir xil jinoyat uchun shaxslarga turli jazolar tayinlanishi mumkinligi haqida ketmoqda. Jazo tayinlashda ushbu prinsipga rioya qilinishi adolatli jazo tayinlanishining yagona kafolati hisoblanadi. Tayinlangan jazoni ijro etish o'ta nozik masala hisoblanadi. Sababi jamiyat uchun xavfli bo'lgan, boshqa shaxsga, jamiyatga yoki davlatga zarar yetkazgan shaxs bilan ishlash, unga nisbatan jazoning maqsadlarini tatbiq etish nuqtai nazaridan yondoshish har doim va har tomonlama murakkab faoliyat hisoblanadi. Uning nozikligi ham aynan shu bilan belgilanishi. Jazoni ijro etishda ham birinchi navbatda differentsiatsiya prinsipi yetakchilik qilmoqi lozim. Shaxsni sodir etgan jinoyati, uning sababi, jinoyatchi shaxsi va boshqa holatlar hisobga olinib, differentsiyalashgan va individualashgan jazoni ijro etish tizimi samarali bo'lishi mumkin.

Dunyoning ko'plab davlatlari bunday tizimni allaqachon tushunib etishgan va ular bunday usulni bir necha yildan beri muvaffaqiyat bilan qo'llab kelmoqdalar. Jazoni ijro etish jarayonida jazoning maqsadlari to'la o'z aksini topishi ham o'ta muhim masala hisoblanadi. Ya'ni bunda jinoyat sodir etgan shaxs, qilmiishi uchun eng avvalo jazolanishi, ayni vaqtda tarbiyalanishi lozim. Jazo ijrosi mexanizmi shunday bo'lishi kerakki, bunda ushbu har ikkala maqsad o'zaro mushtarak va hamohang bo'lmoqi lozim.

Jinoyatchilikni profilaktika qilishda davlat juda ko'p vositalardan foydalanishi mumkin. Eng avvalo barcha masala iqtisodiy tomonga borib taqaladi. Mamlakatda iqtisodiy vaziyat qancha mu'tadil bo'lsa, jamiyatdagi ijtimoiy ahvol shuncha mustahkam bo'ladi. Lekin bu ham muammoning yechimi emas. Chunki bunday holatda ham jinoyatchilikka chek qo'yib bo'lmaydi. Sababi ushbu vaziyatda jinoyatchilikning yangi ko'rinishlari avj oladi. Masalan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan ko'plab davlatlarda (Masalan, AQSh va ayrim Evropa davlatlari) korrupsiya jinoyatlariga hamon chek qo'yishning imkoniyati bo'lmagan. Ayrim holatlarda aytilishicha, jinoyatchilikka butunlay chek qo'yish bu utopiyadan boshqa narsa emas. Bu fikr ham qisman to'g'ri. Iqtisodiy tomon ham masalaning mutlaq yechimi emas. Aytmoqchimizki, jamiyat hayotining sharoitlari qanday bo'lishidan qat'i nazar (u iqtisodiy rivojlanganmi yoki yo'q) davlat uchun jazo har doim muhimdir. Aynan ana shunday holatda davlat jazo siyosati orqali jinoyatchilikka qarshi kurashadi. Biror narsani unutmash kerakki, jazo (u og'ir yoki engil bo'lishidan qat'i nazar) jinoyatchilikka qarshi kurashda faqatgina muayyan darajada ta'sir qiladi. Hatto og'ir jazo bosimi ostida ham jinoyatchilikni oldini olishga erishish mushkul.

Jazoning ijtimoiy funksiyasi ham jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qilishdir. Zamonaviy yashash sharoitlarida asosiy e'tibor jazoning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirishga qaratiladi. Chunki har qanday masalani hal etishda dastavval inson ongining yetakchi mezon hisoblanadi. Insonlarning u yoki bu masalaga munosabatini o'zgartirmay turib hech bir muammoni hal qilish mumkin emas. Jazoning tarbiyaviy jihatlari ham jinoyat sodir etgan shaxsni ongiga ta'sir etish orqali unda o'z qilmisidan pushaymonlik hissini uyg'otish va kelajakda bunday holat takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikka erishishdan iborat.

Xulosa qilsak! Yuqorida ta'kidlangan natijaga erishishda davlatning jinoyat-huquqiy va penitensiar siyosati hamda ularning negizini tashkil qiluvchi jazo tizimi shakllanganda eng avvalo muayyan jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, etno-madaniy, konfessional, ma'naviy-ma'rifiy holatlarni, shuningdek, davlatchilik va ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi, ijtimoiy va kriminologik jihatdan muayyan jazoning zarurati, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, jamoatchilik fikri, huquqiy ong va qonunga itoatkorlik darajasini, huquqiy madaniyat ahvolini, ilmiy-nazariy yutuq va tavsiyalarni, xalqaro tajriba va xalqaro huquqning umumiy e'tirof etilgan standartlarini, jazoning real ijtimoiy-regulyativ imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Ushbu holatlar hisobga olingan va olib boriladigan jinoyat-huquqiy siyosat ham (jazo siyosati) muntazam tarzda islohot qilishga muhtoj. Bunda asosiy e'tibor qonunni o'zgarib boruvchi zamon talablariga moslashtirib borish, qonunchilikni takomillashtirib borish, jinoyat huquqining sotsiologiyasini ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Faqat shundagina ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatlari ochilishi mumkin.

Ushbu maqolada jinoyiy jazolar va ularning maqsadi, og'irligi va ijro etilishi haqida falsafiy, ijtimoiy, va huquqiy nuqtai nazardan batafsil bahs yuritilgan. Maqola shaxsiy fikr va tahlillarga asoslangan bo'lsa-da, ba'zi umumiy tushunchalar, qadimgi falsafiy prinsiplarga tayangan va zamonaviy jinoyat-huquqiy tizimdagi izlanishlar bilan bog'liq.

Maqolada foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyat huquqi va penologiya: Jinoyat huquqi, jazo siyosati, penitensiar siyosat, va penologiya (jazoni ijro etish) haqida asosiy ilmiy manbalar.
2. Falsafa va ijtimoiy nazariyalar: Jazo va jinoyatchilikni tushunishdagi falsafiy yondoshuvlar, masalan, utilitarizm, retributiv adolat yoki rehabilitatsiya.
3. Xalqaro huquq va jinoyat qonunchiligi: Xalqaro huquq, yuridik adabiyotlar, va boshqa davlatlardagi jinoyat huquqi tizimlari, shuningdek, xalqaro miqyosdagi standartlar.

4. Kriminologiya va sotsiologiya: Jinoyatchilikni tushunishda va jazoning ijtimoiy funksiyasini o'rganishda ishlatilgan ilmiy asarlar.
5. Amaliy va ilmiy-tadqiqot materiallari: Dunyodagi ayrim mamlakatlardagi jazo tizimlarini tahlil qilgan, jinoyat va jazoni keltirib chiqaradigan omillarni ko'rib chiqadigan tadqiqotlar.